

TA'LIM SIFATINI BOSHQARISH JARAYONINI

LOYIHALASHTIRISHNING MAZMUNI

СОДЕРЖАНИЕ ПРОЕКТИРОВАНИЯ ПРОЦЕССА

УПРАВЛЕНИЯ КАЧЕСТВОМ ОБРАЗОВАНИЯ

CONTENT OF EDUCATION QUALITY MANAGEMENT

PROCESS DESIGN

Jabborova Dilshoda Normurodovna

Pirnazarova Nafosat Jo'raqulovna

Jizzax shahar 32-DMTT direktori

Annotatsiya Ta'lism tashkilotida sifatni boshqarish tizimini funksional tadqiq qilishda boshqaruvi xodimi qanday qilib tizim shunday holga tushib qolganligi sabablarini aniqlaydi.

Аннотация При функциональном исследовании системы менеджмента качества в образовательной организации работник управления определяет причины, по которым система пришла в такое состояние.

Annotation In a functional study of the quality management system in an educational organization, a management employee determines the reasons why the system has come to such a state.

Kalit so'zlar: ta'lism, tashkilot, sifat, boshqarish, tizim, funksional, boshqaruvi, xodim.

Ключевые слова: образование, организация, качество, управление, система, функционал, управление, работник.

Key words: education, organization, quality, management, system, functionality, management, employee.

Ta'lism tashkilotlarida boshqaruvi faoliyati muammolarini oldindan konseptual tarzda ishlab chiqish ta'lism sifatini boshqarish tizimini loyihalashtirishning invariant asosga ega bo'lgan jarayonini ko'rib chiqishga o'tish imkonini berdi. Bu turli ta'lism tashkilotlarida undan foydalanish imkonini yaratdi. Bizningcha, ta'lism tashkiloti boshqaruvi xodimining e'tiborini «ta'lism tashkilotida ta'lism sifatini boshqarish tizimini tahlil qilishning morfologik, tarkibiy, funksional jihatlarini, boshqaruvi jarayonlarining etakchi yo'nalishlarini, ularni amalga oshirish shakllari va usullarini egallashga qaratish muhimdir.

Ta'lism sifatini boshqarish jarayonini tadqiq qilishning morfologik jihatni uni tarkibiy qismlarga, elementlarga ajratishni hamda asosiy xususiyatlari va sifatlarini tegishli ravishda ham miqdor, ham sifat jihatidan tavsiflashni ko'zda tutadi. Bunda, eng avvalo, zikr etilgan tizim sifatini va uning yaxlitligini belgilovchi omillarni hisobga olish muhimdir. Obyektni shu tarzda o'r ganishning asosiy vositasi dekompozitsiya metodi hisoblanadi. Tizimli tahlil sxemasiga muvofiq, tadqiqot predmeti morfologik tavsiflangandan keyin uning tarkibiy tahlili bajariladi. Rahbar ushbu bosqichda qismlar va elementlarning o'zaro aloqalari va munosabatlarini aniqlaydi va integrativ natijani belgilaydi.

Tuzilmani tavsiflash uchun ta'lism sifatini boshqarish jarayonining maqsadlari va

pirovard natijasini aniq tasavvur etish, uni tashkil qiluvchilarni ajratib, ularni barcha o‘zaro aloqalarda tadqiq qilish, boshqaruv sifatini o‘zgartirishdagi rolini ko‘rsatish kerak. Boshqaruv xodimi, ta’lim sifatini boshqarish tuzilmasini tahil qilar ekan, kuchli va zaif o‘zaro aloqalarni, ularning tavsifyi belgilari va xossalarni, ta’sir ko‘rsatish zarur bo‘lgan aloqalarining turlarini aniqlaydi, asosiy muammolarni belgilaydi.

Ta’lim sifati ko‘p jihatdan uning tuzilmasiga bog‘liqligini e’tibordan chiqarmaslik kerak. Ta’lim tashkilotida sifatni boshqarish tizimini funksional tadqiq qilishda boshqaruv xodimi qanday qilib tizim shunday holga tushib qolganligi sabablarini aniqlaydi. Bu erda funksiyalarning o‘zaro harakatini aniqlash, ushbu tizimdagи ana shu tarkibiy qismlarning har birining, shuningdek, tizim barcha elementlarining ahamiyatini belgilash kabi murakkab vazifalarni hal qilish lozim bo‘ladi. Bunda elementlar va kichik tizimlar o‘z funksional vazifalarini bajarayotgan yoki bajarmayotganligi hamda ularning umuman tizimga qanday ta’sir ko‘rsatayotganligi aniqlanadi. Ma’lumki, bitta bo‘lsada, funksional aloqaning yo‘qligi, o‘zaro aloqalarning buzilishi tizimning buzilishiga olib keladi.

Ta’lim tashkilotida sifatni boshqarish muammosini genetik tadqiq qilishda boshqaruv xodimi ta’lim sifatini boshqarish jarayonining o‘tmishdagi, bugungi kundagi va kelgusi holati o‘rtasidagi aloqani aniqlaydi. Tizimning aynan genetik xususiyatlari tizim ichidagi aloqalarni, shuningdek, uning tashqi muhit bilan aloqasini shart qilib qo‘yadi. Tizimni tahlil qilish texnologiyasi ancha murakkab, ammo boshqasi ham ayon. Tizimli tahlil boshqaruv faoliyati holatini organik birlikda, tarkibiy qismlarining aloqalari va o‘zaro aloqalarini bilish, ushbu holat sabablarini obyektiv aniqlash, keyingi rivojlanish istiqbolini ko‘rish imkonini beradi.

Ta’lim sifatini boshqarishda asosiy e’tibor loyihalashtirish faoliyatiga beriladi. Bu sifatni boshqarish metodologiyasi tomonidan ko‘zda tutilgan — bunda sifat tadqiq qilish va loyihalashtirish, rivojlanish dasturlari va konsepsiyanı ishlab chiqish bosqichida qo‘yilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Sh.M. Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”. – 2017.– 102b.
2. Sh.M. Mirziyoyev Buyuk kelajagimizni mard va oljanob halqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Qurbanov Sh., Sayitxalilov E. Ta’lim sifatini boshqarish. –T.: Turon-Iqbol, 2006. – 592 b.
4. Djuraev R.X., Turg‘unov S.T. Ta’lim menejmenti. –T.: Vorisnashriyot, 2006. -259 b.